

TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH

Normurodov Xusan Eshmaxmatovich

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti katta oʻqituvchisi

Nutfullayev Shohrux Mexli oʻgʻli

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadbirkorlik muhitini yaxshilash, aholi daromadlarini oshirishning zamonaviy yoʻllari, kambagʻallikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari, kambagʻallikni qisqartirish omillari, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning natijalari, shuningdek tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: kichik biznes, raqamli texnologiyalar, xususiy tadbirkorlik, kambagʻallikni qisqartirish, innovatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, aholi daromadlarini oshirish.

Аннотация

В данной статье научно изложены современные подходы к улучшению предпринимательской среды, увеличению доходов населения, снижению уровня бедности, а также результаты реформ, проводимых в Узбекистане. Рассмотрены научные исследования, направленные на развитие предпринимательства и сокращение бедности, новые возможности увеличения доходов населения, факторы, влияющие на снижение бедности, а также правовые аспекты, способствующие развитию частного бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, цифровые технологии, частное предпринимательство, сокращение бедности, инновации, социально-экономические возможности, повышение доходов населения.

Abstract

This article provides a scientific overview of modern approaches to improving the entrepreneurial environment, increasing household incomes, reducing poverty, and the outcomes of ongoing reforms in Uzbekistan. It explores research focused on entrepreneurship development and poverty reduction, highlights new opportunities to boost income levels, identifies key poverty-reducing factors, and examines legal aspects that support the growth of private business.

Keywords: small business, digital technologies, private entrepreneurship, poverty reduction, innovation, socio-economic opportunities, income growth.

KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambagʻallikni qisqartirish hamda aholining daromadlarini oshirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yoʻlida muhim bosqichlardan biri boʻldi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan meʼyoriy-huquqiy hujjatlar orqali xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlik

tashabbuslarini ragʻbatlantirish va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi shakllantirildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgust PF-5780-son “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish toʻgʻrisida”¹gi Farmoni asosida sohani tartibga solishga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlar amaliyotga tatbiq etildi.

Mazkur Farmonlar ijrosi hududlar kesimida bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyilib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi imkoniyatlar yaratildi. Natijada, kichik va oʻrta biznes subyektlari soni ortdi, hududiy bandlik darajasi oshdi hamda aholi daromadlarini koʻpaytirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat faollashtirildi.

Umuman olganda, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim natijalarga erishildi. Tadbirkorlik faoliyatining qoʻllab-quvvatlanishi aholi daromadlarini oshirish, bandlikni kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash yoʻlida muhim omil sifatida shakllandi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambagʻallikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida aholi daromadlarini oshirish boʻyicha xorijlik olimlar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, ularning ilmiy tadqiqotlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambagʻallikni qisqartirish borasida bank siyosatini kengroq olib borish masalasiga eʼtibor qaratilgan. Jumladan, xorijlik olimlardan Dj. Lorens, I. Lipsits, V. Bernes, K. Makkonel, T. Gustafson, A. Mertens, V. Milovidov, P. Samuelson, A. Xavranek, M. Fridman, Ye. Cherkasov, S. Bryu, A. Blank, L. Gitman va boshqalarni misol qilib aytishimiz mumkin [3].

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Ye.L. Kantor, S.V. Veronin, S. Deting, L. Xarchenko, I. Rostova, V.A. Barinov [4] hamda I.V. Sergeyevlar [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oʻz aksini topgan.

Oʻzbekistonlik olimlardan O.K. Iminov, B.A. Xodjayev, A.A. Isadjanovlarning ilmiy izlanishlarida ayrim jihatlar oʻz ifodasini topgan [6]. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambagʻallikni qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz olimlaridan A. Vahobov, R. Xasanov, A. Oʻlmasovlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan [7].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini

¹ <https://lex.uz/docs/-4473481>

kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni aynan soha rivojiga quyilgan muhim poydevor bo'la oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi [8].

Yuqorida keltirib o'tilgan xorijiy olimlar va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambag'allikni qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan masalalar o'rganilgan.

Biroq tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan aniq yechimlar yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun ham tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini zamonaviy yo'llar orqali kengaytirishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud.

METODOLOGIYA

Tadqiqot uchun ma'lumotlar rasmiy statistika hisobotlari, milliy va xalqaro tadbirkorlikni baholash hisobotlari, shuningdek, tadbirkorlar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili va qiyosiy tahlil usullari yordamida tahlil qilinib, mavjud tendensiyalar va muammolar aniqlanib, ularning yechimlariga ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni kamaytirish — bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir [2].


Tadbirkorlik muhitining institutsional islohoti iqtisodiyotni liberallashtirish, tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish hamda huquqiy institutlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash orqali tadbirkorlik subyektlari uchun qulay makroiqtisodiy muhit shakllantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning o'zini o'zi band qilish darajasini oshirishga va rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Daromad manbalarining diversifikatsiyasi esa tadbirkorlik faoliyatining sektorlar bo'yicha kengayishi (xususan, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va sanoat yo'nalishlarida) aholi uchun an'anaviy mehnat resurslariga tayanmagan, barqaror va innovatsion daromad manbalarini shakllantirish imkonini berdi. Bu holat hududiy daromad tengsizligini qisqartirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bandlik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari natijasida kichik va o'rta biznes subyektlarining soni ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa ishsizlik darajasining sezilarli pasayishiga olib keldi. Shuningdek, rasmiy bandlikka o'tish darajasi ortdi, bu esa aholi real daromadlarining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagi samaralardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy inklyuziyaning kuchayishi kuzatildi: aholining ijtimoiy jihatdan himoyasiz qatlamlari — xotin-qizlar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tadbirkorlik orqali daromad topish


imkoniyatlari kengaytirildi. Shu bilan birga, inklyuziv moliyalashtirish tizimining rivojlanishi (mikromoliyalashtirish, grantlar, subsidiyalar) mazkur guruhlarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qildi (1-rasm).



1-rasm. Aholining umumiy daromadlari tarkibi¹

Aholining umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi, asosan, umumiy daromadlar tarkibida 66,0 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) hamda 25,3 % ni tashkil etuvchi transferlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini qisqartirish borasida quyidagi zamonaviy yo'llarni amaliyotga keng tatbiq etish innovatsion yechimlar sifatida e'tirof etiladi (2-rasm).




2-rasm. Kambag'allikni qisqartirish omillar²

¹ Muallif ishlanmasi

² https://www.researchgate.net/publication/378529826_Tadbirkorlik_muhitini_yaxshilash_orqali_kambag'allikni_qisqartirish_va_aholi_daromadlarini_oshirishning_iqtisodiy-ijtimoiy_ahamiyati asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bundan ko‘rinadiki, 2-rasmda mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasini qisqartirishga qaratilgan 8 ta zamonaviy yo‘l ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bugungi kunda amaliyotda ularni keng joriy etish kambag‘allik darajasini qisqartirishga va aholi daromadlarining yuqori sur‘atlarda o‘shirishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Qolaversa, mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida ishlab chiqilgan va quyidagi 3-rasmda keltirib o‘tilgan yangi imkoniyatlar innovatsion yondashuvlar hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari¹

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida 3-rasmda keltirib o‘tilgan imkoniyatlar aholi daromadlarini oshirishning innovatsion yondashuvlari bo‘lib, ushbu yondashuvlar o‘z ichiga 6 ta yo‘nalishni qamrab olgan. Ushbu yo‘nalishlarni amaliyotga keng tatbiq etish mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Chunki amaliyotda 3-

¹https://www.researchgate.net/publication/378529826_Tadbirkorlik_muhitini_yaxshilash_orqali_kambag'allikni_qisqartirish_va_aholi_daromadlarini_oshirishning_iqtisodiy-ijtimoiy_ahamiyati asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

rasmda ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar hali keng tarqalmagan. Shuning uchun ham ular yangi innovatsion yechimlar bo‘la oladi.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak, jumladan:

- Kambag‘al aholi qatlamining monitoringini yuritish va har bir oila kesimida tadbirkorlikni tashkil etish;
- Kambag‘al aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan imtiyozlarni joriy etish;
- Tejamkorlik dasturini yaratish va amal qilgan oilalarga imtiyozlar berish hamda onlayn xizmatlar bozorini rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etish natijasida, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari hamda yangi innovatsion-iqtisodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Shuningdek, muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilgan sa‘y-harakatlar natijasida, aholining kam ta‘minlangan qismiga tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun bo‘sh yer hududlari taqdim etildi. Bu esa aholi daromadlarini oshirish uchun yana bir muhim yechim bo‘ldi.

Bu kabi islohotlar nafaqat iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishga, balki aholining farovonligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Raqobatbardosh biznes muhitini shakllantirish, moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirish esa tadbirkorlik subyektlarining faolligini oshiradi, natijada yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va aholi bandligining barqaror o‘sishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgust PF-5780-son “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4473481>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. – Toshkent-2018-yil.

4. В.А. Баринов, В.Л. Харченко “Стратегический менеджмент”, Учебник. – М.: ИНФРА — М, 2006– 90 стр.

5. И.В.Сергеев “Экономика организаций”, Учебник. – М.: Проспект, 2006. – 481 стр.

6. Б.А.Ходжаев “Методологические аспекты обоснования экспортного потенциала как фактора эффективности внешнеэкономической деятельности” // Халқаро муносабатлар. – Т., 2002. – №3. – стр. 33-39.

7. А.А.Исаджанов “Развитие внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан в условиях перехода на рыночные отношения”: Дис. д-ра экон. наук / АН РУ институт экономики. – Ташкент, 2001. – 323 с.

8. А.О‘lmasov “Oila iqtisodi”, –Т.: “Mehnat”, 1998. В -48.

9. А.Vahobov “Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi”, –Т.: Sharq, 2003. — 285 b.

10. R.Xasanov “Bozor daromadlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi”, –Т.: Akademiya, 2004. -187 b.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**